O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

- aholi daromadlari strukturasi va hajmi ko‘rsatkichlarini shakllantirish;
- ijtimoiy iste’mol fondlari shakllantirish jarayonlarini tadqiq etish;
- nomoddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlantirish;
- nomoddiy ishlab chiqarish tarmog‘ida kapital qo‘yilmalarini amalga oshirish jarayonlarini modellashtirish;
- nomoddiy ishlab chiqarish fondlari hajmini modellashtirish;
- xalqning turmush darajasini o‘stirish bo‘yicha yangi chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni baholash;
- xalqning turmush darajasini oshirish rejalarini bajarish jarayonlarini baholash va ularning bajarilishini rag‘batlantiradigan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- strategik reja sifatini sistematik baholash va uning bajarilishini nazorat qilish.

Muayyan vazifalarni hal qilish aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy rivojlanishning global, mahalliy va maqsadli ko‘rsatkichlariga muayyan strategik maqsadlar asosida erishiladi. Global ko‘rsatkichlar, eng avvalo, axoli turmush darajasi konsepsiyalarini ishlab chiqish, noishlab chiqarish sohasi va ijtimoiy rivojlanishning asosiy sohalarini rivojlantirish, shuningdek, xalq farovonligi o‘sishini tavsiflaydigan muhim jamlanma ko‘rsatkichlar dinamikasini bashorat qilishda hisobga olinadi. Lokal maqsadlar moddiy ne’matlar va xizmatlarning alohida ko‘rsatkichlarini, noishlab chiqarish sohasini rivojlantirishning turli tarmoq tavsiflarini, xalq farovonligi o‘sishidagi tafovutlarni tavsiflaydigan alohida ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilishda e’tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod Molia” nashriyoti, 2019. 386 bet.
2. *Гаврилов Л. П.* Электронная коммерция: учебник и практикум для вузов / 3-е изд., доп. Москва : Издательство Юрайт, 2019. -477 с.
3. *Лапидус Л.В.* Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией.–М.:ИНФРА-М,2018.-381 с.
4. *Маркова В.*Д. Цифровая экономика: Учебник для ВУЗ ов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. -186 стр.
5. *Gulyamov S.S., Ayupov R.X.* Рақамли иқтисодиёт ва унинг асосий ривожланиш йўналишлари. УзР Статистика Кумитаси электрон журнали, 2019 йил ноябрь, 2-сон.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT, RAQAMLI IQTISOD VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI MOBIL QURILMALAR BOZORI

Janaydarova K. A.
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Nurafshon filiali magistranti

Annotatsiya. Tezisda mobil qurilmalar funktsiyalarining kengayganligi, ayniqsa kovid -19 pandemiyasi ta’sirida mobil qurilmalarga talab o’zgarganligi to’g’risida bayon qilingan. Shuningdek, jahon mobil qurilmalar bozori dinamikasi, mobil telefon brendlari va ularning qaysi davlatlar tomonidan O’zbekistonga kirib kelishi xususida ma’lumotlar tahlili qilingan.

Kalit so‘zlar. Mobil qurilma, smart qurilma, veb-brauzer,GPS navigatsiya qurilmasi, import.

So'nggi bir necha yil ichida mobil texnologiyalar tez rivojlandi. Ushbu ming yillik boshidan beri standart mobil qurilma oddiy ikki tomonlama bo'lishdan uzoqlashdi: peyjer bo'lish yoki mobil telefon, GPS navigatsiya qurilmasi, veb-brauzer va mijozlararo tezkor xabar almashish vositasi. Mobil qurilmalar smartfonlar, iPhonelar, planshetlar, elektron kitoblar, CHPK (cho’ntak personal kompyuterlar), netbooklar, ultrabuklar, smartvatch (aqlli soat), quloqchinlar, mobil banking (to’lov kartalari) bo’lib, ularning asosiy jihati o’lchami (ixchamligi) hamda ko ‘p funksiyalarni bajarishidir. Mobil qurilmalar yordamida hujjatlar bilan ishlash, musiqa tinglash, videoklip tomosha qilish, o’yinlar o’ynash, hatto radioeshittirish va televideniedan ham bahramand bo’lish mumkin. Ular hayotimizning ajralmas bir bo’lagiga aylanib ulgurdi. Bugungi kunga kelib insonlarning aksariyati bir kunni ham ularsiz o’tkazolmaydigan bo’lib ularga bog’lanib qoldi. Mobil qurilmalar insonlarning og’irini yengil, uzoqni esa yaqin qilib bermoqda. Shunday ekan, so’nggi yillarda mobil qurilmalarga bo’lgan ehtiyoj haddan ziyod oshib ketganligi ajablanarli hol emas. Oxirgi yillarda jahon mobil qurilmalar bozori mobil texnologiyalarning hamma joyga shiddat bilan kirib kelishi natijasida sezilarli darajada o’sgan. Shu bilan birga, jahon mobil qurilmalar bozori tendentsiyasi va talab bo’yicha savol tug’ilishi tabiiy. Agar tendentsiyanini o’rganadigan bo’lsak, shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki, kovid-19 pandemiya talab va taklifning o’rtasidagi muvozanatning buzilishiga, shuningdek, yangidan yangi shaxsiy mobil qurilmalarning yaratilishiga sabab bo’ldi. Jahon bozorida 2022-2027 yillarda smartfonlarga bo’lgan talab 4% ga oshishi kutilgan edi [1]. 2021 yilgi bashoratlarga ko’ra dunyo aholisining 40%i smartfonlardan foydalanishi kerak edi. Eng ko’p smartfon foydalanuvchilar sifatida Xitoy, Hindiston va AQSh ko’rsatilgan edi. Biroq yuqorida aytib o’tilganidek, pandemiya tufayli ishlab chiqarish, qurilmalarni yetkazib berish, ularni takomillashtirish bir qancha muddatga kechiktirildi. Bundan tashqari ushbu qurilmalarga bo’lgan ehtiyoj ham pasaydi. Chunki bu davrda insonlarni ikkilamchi ehtiyojlar emas, balkim birlamchi ehtiyojlar qiziqtirar edi. Shu bilan birga insonlarda yangi turdagi, ya’ni yolg’iz qolgan kasallarga, qariyalarga, imkoniyatlari cheklanganlarga ko’maklovchi smart qurilmalarga (kengaytirilgan funktsiyali kolyaskalar, yurishga ko’maklovchi vositalar, samokatlar va boshqa shu turdagi mahsulotlar) ehtiyojlar paydo bo’lishi natijasida mobil qurilmalar safi kengayib, ular yanada takomolashtirila boshlandi.

Mobil qurilmalar orasida keng tarqalgani yoki bo’lmasam keng foydalaniladigani mobil aloqa qurilmalari bo’lganligi sababli ular bo’yicha statistik ma’lumotlarni o’rganib chiqamiz. Hozirgi kunda dunyo aholisining deyarli yarmidan ko’pi smartfonlardan foydalanadi. Yuqorida 2007-2022 yillarda dunyo bo’yicha

oxirgi foydalanuvchilarga sotilgan smartfonlar soni inografikasi keltirilgan. 2007-2009 yillarga qaraydigan bo’lsak, smartfonlar soni 200 mln.dan oshmagan va deyarli o’sish bo’lmagan. 2010 yilda esa smarfonlar xaridi soni 296,95 mln. donagacha o’sganli ko’rinib turibdi. 2009 yildan to 2018 yilgacha mobil aloqa qurilmalarning ushbu turi oxirgi iste’molchiga sotilishi dinamikasi to’xtovsiz shiddat bilan ko’tarilib bormoqda. Bu esa insonlar smartfonlardan foydalanish darajasi o’sib borayotganligidan dalolat beradi. Mobil qurilmalar kundalik hayotimizda bizga har jihatdan yordamchi, ya’ni uzoq masofadagi kishilar bilan ko’rib so’zlashish, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli shakldagi xabarlarni jo’natish, qabul qilish, istalgan paytda qisqa vaqt ichida dunyoning ixtiyoriy burchagida ro’y berayotgan xabarlardan boxabar bo’lish, kerakli bo’lgan ma’lumotlarni olish, kinolar, videolar ko’rish, xaridlar, buyurtmalar qilish, davlat va xususiy sektor xizmatlaridan foydalanish, ayrim shaxslarga moliyaviy jihatdan foyda olish va boshqa imkoniyatlarni beradi.

Biroq grafikda 2019 yildan to 2022 yilgacha smartfonlar xaridi sezilarli darajada kamayib borganligini ko’rish mumkin. Infografikada eng yuqori sotuv hajmi 2018 yilda, ya’ni 1556,27 mln. dona kuzatilgan bo’lsa, 2022 yilga kelib bu ko’rsatkich 2018 yilga nisbatan qariyb 356,27 mln. donaga kamaygan, ya’ni 1200 mln. donani tashkil etgan. Bu foydalanuvchilar soni kamayganligidan dalolat bermaydi. Aksincha hozirgi kunga kelib 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada o’sgan, Bu shunchaki bozor to’yinganligi, aloqa qurilmalar ishlab chiqaruvchilar o’rtasidagi raqobat sababli sifatli, ko’p xizmat qiladigan, yerga tushsa sinmaydigan qurilmalarning ishlab chiqarilishidan dalolatdir.

Nufuzli bozor tadqiqot tashkiloti «Canalys» tomonidan e'lon qilingan smartfonlar sotuvi haqidagi yangi hisobot 2023 yilning ikkinchi choragida jahon smartfon bozori 11 foizga pasayganini ko'rsatadi. [3]

Uchinchi o‘rinni 13% bozor ulushi bilan Xiaomi egalladi. Hozirda u dunyodagi eng mashhur Xitoy mobil telefon brendidir. [3]

1-jadval.

2023 yil 1-yarim yilligida jahonda mobil telefon brendlarining top-10 taligi[4]

№	Mobil telefon brendlari	Jami yuk (mln dona)	Jahon bozoridagi ulushi (%)
1.	Samsung	260	21
2.	Apple	224	18
3.	Xiaomi	152	12
4.	Oppo	118	10
5.	Vivo	99	8
6.	Realme	36	3
7.	Motorola Mobility (Lenovo)	35	3
8.	Huawey	30-35	2
9.	Transsion (Tecno, Itel)	30	2
10.	Honor	20	1-2

Xususan, O’zbekistonda joriy yilning yanvar-avgust oylarida xorijdan qiymati 117,4 mln dollarga teng bo’lgan 1.6 mln dona mobil telefon import qilindi. Shundan Toshkentga 1.56 mln dona telefon import qilindi. Shuningdek, eng ko‘p mobil telefon import qilish bo‘yicha Farg‘ona viloyati (42,7 ming dona), Andijon viloyati (15,7 ming dona) hamda Samarqand viloyatlari (6,8 ming dona) ham yetakchilik qilmoqda. Bu haqda Davlat statistikasi xabar berdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan mobil telefon importi 1,2 mln donaga yoki to‘rt barobarga oshdi.

Xususan, Toshkentga sakkiz oy davomida eng ko‘p — 1 mln 569,3 ming dona telefon import qilingan bo‘lsa, Qoraqalpog‘istonda bu ko‘rsatkich 2 donani tashkil qildi. Shuningdek, eng ko‘p mobil telefon import qilish bo‘yicha Farg‘ona viloyati (42,7 ming dona), Andijon viloyati (15,7 ming dona) hamda Samarqand viloyatlari (6,8 ming dona) ham yetakchilik qilmoqda.

Faqatgina avgust oyining o‘zida xorijdan 236 624 dona mobil telefon import qilingan.

O‘zbekiston 12 ta davlatdan mobil telefonlar import qilgan, lekin telefonlarning katta qismi quyidagi davlatlarga to‘g‘ri keladi[6]:

- Xitoy — 63 mln.
- Vetnam — 41,4 mln.
- Hindiston — 5,9 mln.
- Qozog‘iston — 5,5 mln.
- BAA — 960 ming
- Germaniya — 647 ming
- Koreya — 60 ming
- Rossiya — 18 ming AQSh dollari.

Taqqoslash uchun: 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida O‘zbekistonga atigi 79,9 ming telefon import qilingan, bu hozirgi ko‘rsatkichdan 20 barobar past.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning yetti oyida O‘zbekiston 130 million dollarlik mobil telefonlar import qilgan. Iyul oyida 23 million dollarlik qurilmalar import qilingan.

Mamlakatimizda mobil qurilmalarga bo’lgan ehtiyoj kunda kunga oshib bormoqda. Buni birgina yuqorida keltirilgan mobil aloqa vositalarining xorijdan yurtimizga kirib kelishi, ya’ni importning oshib borishi misolida ko’rish mumkin. Yuqorida qayd qilingandek mobil qurilmalar insonlar hayotining bir ajralmas qismiga aylanib ulgurdi desak, mubolag’a bo’lmaydi. Bu qurilmalar roli, ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti raqamli iqrtisodiyotga trasformatsiyalanayotgan bir o’tish jarayondada juda muhim bo’lib, u bu jarayonning tezlashishiga ko’mak beradi. Xulosa o’rnida yana shuni birdek ta’kidlab o’tish joizki, mobil qurilmalarning bizning hayotimizni, turmush tarzimizni yengillatish bilan barobarda inson salomatligiga salbiy ta’sirini o’tkazmay qo’ymaydi. Shuning uchun shuni ta’kidlab o’tish joizki, hamma narsaning me’yori va o’z o’rni bo’lgani maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Отчет о рынке смартфонов (размер, доля, рост и тенденции (2022-2027 годы) (mordorintelligence.com).

2. Индустрия мобильных технологий за последние годы не теряет темпа своего развития (overclockers.ru).
3. Global smartphone shipments from 2007 to 2022
https://www.statista.com/statistics/report-content/statistic/271491
4. Best Mobile Phone Brands In The World 2023: Top 8 Most Popular (bscholarly.com) By Edeh Samuel Chukwuemeka ACMC / April 23, 2023
5. Top 10 Mobile Phone Brands in World 2023 | MBA Skool.
6. https://www.gazeta.uz/ru/2020/11/30/mobile-import/

KORXONALAR FAOLIYATINI RAQAMLARSHIRISHNING NAZARIYASI VA ILMIY ASOSLARI

Mamatqulov G‘ulom Rustamovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
g.r.mamatqulov@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu tezisda Raqamli iqtisodiyotning ilmiy asoslari, raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi imkoniyatlari kelib chiqib, korxonlar faoliyatini raqamlashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatilib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, korxona, texnologiya, ishlab chiqarish, raqamli transformatsiya, boshqaruv, raqamlashtirish.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida zamonaviy raqamli texnologiyalar ijtimoiy farovonlik o’sishini belgilovchi asosiy ishlab chiqarish resursi sifatida qaralmoqda. Tashkilotlar va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori korxonalari tomonidan zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan foydalanish ularning raqamli iqtisodiyotda samarali ishlashining eng muhim shartidir.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.[1]

Korxonani raqamlashtirish zamonaviy ishlab chiqarish usullariga asoslangan holda texnologik jarayonlarni va boshqaruvning barcha darajalarida qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarish sifatini keskin o’zgartiradi va korxona faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida raqamlashtirish yuzasidan bir qancha olimlar o’z fikrlarini bildirishgan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi birinchi marta 1994 yilda Kanadalik iqtisodchi Don Tapskottning tomonidan ishlatilgan. Muallif o’z ishida